

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-dekabrdagi PQ-455-son qarorining 7-ilovasiga asosan
Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi tomonidan budget xarajatlarining maqsadli
indikatorlari ijrosini ta’minlash bo‘yicha 2025-yil IV-chorak ijrosi to‘g‘risida**

HISOBOT

№	Rivojlanish dasturi va maqsadli indikator nomi	O‘lchov birligi	2025-yil uchun jami	2025-yil uchun aniqlangan reja	31.12.2025 holatiga			Izoh
					Ijro	Farqi	Foizda (%)	
	Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilarni huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi	mlrd. so‘m	12,588	12,596	12,131	0,465	96,31%	Qo‘mita markaziy apparati va Qo‘mita huzuridagi Markazda mavjud bo‘sh ish o‘rinlari hisobiga 2025-yil o‘n ikki oyi davomida yillik reja 96,31 foizga bajarilgan.
Strategik maqsad: Tadbirkorlar va iste’molchilarga tovar va moliya bozorlariga kirish uchun teng sharoitlarni ta’minlash va raqobat cheklanishining oldini olish								
<u>Yakuniy natija ko‘rsatkichi</u>								
1.	Davlat boshqaruvi organlari va xo‘jalik yurituvchi subyektlarda monopoliyaga qarshi komplayens tizimi joriy qilinishi.	dona	60		68	8	113 %	2025-yilda jami 60 ta davlat organlari va xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etish belgilangan bo‘lib, shundan 2025-yil davomida 68 ta davlat organlari va xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida monopoliyaga qarshi komplayens tizimi to‘liq joriy etildi.
2.	Raqobat holati tahlil qilinadigan tovar, moliya va raqamli bozorlar soni.	dona	25		29	4	116 %	Qo‘mita tomonidan 2025-yil davomida 210 ta tovar va xizmatlar bozorlari tahlil qilindi. Shundan, 29 ta bozorlarda raqobat muhiti holati (4-chorak rejasi 25 ta), 76 ta tovar va ish xizmatlarning bozorlarda muqobillari mavjud yoki mavjud emasligi yuzasidan va 105 ta mahsulot bilan to‘yinganligi bo‘yicha ekspress tahlillar o‘tkazildi. Qo‘mita tomonidan tasdiqlangan yillik rejaga asosan ijro 116 foizga bajarildi.
<u>Bevosita (to‘g‘ridan-to‘g‘ri) natija ko‘rsatkichi</u>								
3.	Reklama to‘g‘risidagi qonunchilik talablarining buzilishi darajasi (jami o‘tkazilgan monitoringlarga nisbatan)	foiz	22		21,6	0,4	101,8 %	Qo‘mita tomonidan 2025-yil davomida ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarda va telegram messengerida tashkil qilingan guruh va kanallarda, tashqi reklama va axborot obyektlarida (konstruksiylarida) reklamalarni joylashtirilishi va

№	Rivojlanish dasturi va maqsadli indikator nomi	O'lchov birligi	2025-yil uchun jami	2025-yil uchun aniqlangan reja	31.12.2025 holatiga			Izoh
					Ijro	Farqi	Foizda (%)	
								tarqatilishi bo'yicha jami 28 485 ta o'rganishlar o'tkazilgan. O'rganish (monitoring)lar natijasida 6 155 ta (21,6%) holatda turli kamchiliklar aniqlanib, ularni tezkor bartaraf etish choralari ko'rilgan.
4.	Tovarlarni ekspertizadan o'tkazish bo'yicha nazorat xaridlari soni.	dona	315		822	507	260%	2025-yil davomida jami 822 nomdagi mahsulotlar nazorat xarid qilinib (yillik reja 315 ta), akkreditatsiyadan o'tgan laboratoriyalarda tekshirilganda, ularning 199 nomdagisi (24,2%) amaldagi texnik jihatdan tartibga solish hujjatlariga nomuvofiqligi aniqlangan. Nomuvofiqligi aniqlangan mahsulotlarni savdo rastalaridan qaytarib olish va belgilangan tartibda chora ko'rish uchun O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligiga yuborilgan.